

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA JADIDLARNING HURRIYAT MAFKURASI VA UNING RIVOJLANISHI

Saidov Zarif

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 401-guruh talabasi

Annotatsiya: XX asr boshlarida Turkistonda jadidlarning hurriyat mafkurasi va uning rivojlanishi, jadidlarning jamiyat ravnaqi yo'liga hissa qo'shishi haqida qisqacha ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: jadid, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Zaki Validiy, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Oyna jurnali, qurultoy.

Prezidentimiz, Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta'kidlaganidek: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak¹. Turkistonda milliy o'zlikni anglash va tushunib yetishga xizmat qilgan va milliy ozodlik mafkurasining yuzaga kelishi, taraqqiy etishi hamda rivojlanishiga alohida va muhim hissa qo'shgan yirik ijtimoiy-siyosiy oqimlardan, yo'nalishlaridan biri- bu jadidchilik edi.

Dastlabki davrlarda jadidlarning ijtimoiy, siyosiy, ma'daniy-ma'rifiy faoliyati nisbatan ijobiy baholangan bo'lsa-da, faqat bugungi kunga kelibgina vatanimiz olimlarining sa'y-harakatlari bilan ushbu masalaga tubdan yangicha yondashuvlar va yangicha qarashlar paydo bo'ldi va qaror topdi. Sovet tarixshunosligida esa uzoq vaqtlar mobaynida bu masala- jadidchilik "reaksion" g'oyaviy oqim sifatida qaralgan. Bugun esa jadidlar harakati Turkiston jamiyatining XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida turli siyosiy kuchlar qo'shilib ketgan bir davrda eng taraqqiyparvar yo'nalishni o'zida mujassamlantirgani ochiq tan olindi.

Jadidchilik harakati o'sha davr nuqtai nazaridan u sotsiologik rivojlanishning ehtiyojlari va aholi manfaatlariga javob berib, dunyodagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan edi. Bilamizki, jadidchilik markaziy Osiyo mintaqasi ijtimoiy rivojlanishining tub burilish bosqichida yuzaga keldi. Ularning jamiyatning turli sohalaridagi turg'unlikni anglashi va idrok etishlari jamiyatni atroflicha isloh etish kerak degan g'oyaning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Ularning zamonaviy ta'lim amaliyotiga oid kontseptual qarashlari va g'oyalari ma'anaviy meros sifatida hozirgi islohotlarning strategiya va keng miqyosli yo'liga muayyan darajada asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir". -Toshkent.: "Tasvir". 2021. –B.25.

Ammo, jadidlarning bu islohotchilik harakati tarixiy murakkab bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Chunki jadidchilik jamiyat rivojlanishining istiqbollari o'ldirilgan turli falsafiy g'oya, fikrlar va dunyoqarashlarning to'qnashuv maydoniga aylandi. Avvalo, bu islohotchilik harakati ishtirokchilari asosiy e'tiborni butun ijtimoiy tizimni o'zgartirishdan emas, balki ma'naviyat sohasini yangilashga qaratdilar. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, darsliklar, o'quv qo'llanmalari nashr etish, G'arb texnika va texnologiyasini o'rganish, gazetalar chiqarish, Yevropa fan va madaniyati yutuqlaridan foydalanishni targ'ib etish bilan milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga, ma'naviy hayotni isloh qilish orqali yaxshilash va milliy dunyoviy ta'limni yuzaga keltirish va rivojlantirishga zamin yaratdilar.

Turkistonda jadidchilik dastlabki bosqichida ko'proq musulmon maktablari islohoti va yevropacha ta'lim unsurlarini kiritishni ko'tarib chiqqan tor doiradagi ma'rifiy va madaniy oqim degan qarashlar mavjud. Chunki, jadidlar harakatining dastlabki yillaridagi mafkurasi hali milliy ozodlik uchun kurash vazifasi bilan bevosita bog'liq emasdi. Ilk yillardanoq ularning mafkurasi milliy uyg'onish uchun shart-sharoitlar yaratish, O'rta Osiyo xalqlarini jahon sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishga qaratilgan edi. Bu harakat tashabbuslari Turkiston xalqlarining boshi berk ko'chaga kirib qolganliklaridan chuqur tashvishga tushdilar. Keng xalq ommasining nihoyatda qashshoqligi, madaniy qoloqlik, mafkuraviy qoloqlik, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan ortda qolganligi ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtirishning amaliy vositalarini izlash fikrini uyg'otdi. O'lkaning mustamlaka zulmiga va istibdod zanjiriga tushishining, mamlakat qoloqligining asosiy sababini xalqning ma'rifiy qoloqligida deb bildilar. Shuning uchun ham birinchi masala qilib ta'lim vazifasi qo'yilgandi. Turkistonda dastlabki jadid guruhlar XX asr boshlarida yuzaga keldi. Jadidlarning taniqli vakillari milliy ziyolilarning o'zagini tashkil eygan kishilar edi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Zaki Validiy, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy va shu kabilar shular jumlasidandir. Jadidlarning tashkiliy jihatdan birlashishlarida ma'rifatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari kattadir. U atrofiga kuchli ma'rifatparvar aqliy kuchlarni to'plagan edi. Yuqorida ta'kidlaganimiz, asosiy masala bo'lgan ta'lim borasida nazariy va amaliy jihatdan ko'p ter to'kishdi. Darslik va o'quv qo'llanmalari yozishdi, yangi usuldagi maktablar, o'quv zallari hamda kutubxonalar ochishdi. Xususan, yurtimiz hududida yangi usuldagi maktablardan birinchisi Qo'qonda 1898-yilda Salohiddin domla tomonidan tashkil etildi. Huddi shu yil To'qmoqda ham yangi maktab ochildi. Bir yildan keyin esa 1899-yil Toshkentda Mannon qori va Andijonda Shamsiddin domla yangi usuldagi maktablarni ochishdi.

1900-yildan boshlab Turkistonda ushbu turdagi maktablar salmog'i kengaya bordi. Aynan shu yili jurnalist, olim va pedagog Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usuldagi o'zbek maktabini tashkil qildi. Ushbu maktabni uning o'zi boshqardi

va dars berdi. Bu maktabning samaradorligi va yutuqlari boshqa joylarda ham o'quv dargohlari ochilishiga turtki bo'ldi. Huddi shunday, Mahmudxo'ja Behbudiy 1903-yilda Samarqand yaqinidagi Jomboyda o'z mablag'i hisobidan maktab ochadi. Uning maktabida mashhur ma'rifatparvarlar Abduqodir Shakuriy va Hoji Muinlar Behbudiy bilan birga dars berishdi². Ularning faoliyatida ma'rifat g'oyalarini ommaviy targ'ib etish ham alohida ahamiyat kasb etgan. Ammo, chor senzurasining zo'ravonligi va taqiqlar sababli ushbu ishlar asr boshlaridayoq cheklab qo'yildi. Jadidlar xalqning turmush sharoitini yaxshilash uchun mustamlaka – feodal zulmi va og'ir majburiyatlardan xalos bo'lish, ma'naviy erkinlikka erishish zarur deya to'g'ri fikr bildirishgan edi. Huquqshunos D. Toshqulovning tadqiqotida ko'rsatilganidek, ma'rifatparvarlar asarlarida mustamlaka – feodal jamiyatning siyosiy-huquqiy muassasalari markaziy o'rin tutadi³. Ular o'z asarlarida hokimiyatning qonunsizlik va poraxo'rlik, og'ir soliqlar kabi zulmkorligi ko'rinishlarini qattiq tanqid qilishdi. Mustamlaka Turkistoni mahalliy ma'muriyati vakillarining saylov tizimini qoralashdi, chor hukumatining soliq siyosatiga norozilik bildirishdi.

Yevropa va Rossiyaning ko'plab ma'rifatparvarlaridan farqli ravishda, jadidlar dini rad etishmadi. Aksincha, ular islomni ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun musulmonlarni birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi asosiy omil, o'lka xalqlarini yuksak axloqiylik, vatanparvarlik, do'stlik, birodarlik, inqirozli vaziyatlardan chiqishdagi kurashda birlashtiruvchi kuch sifatida saqlab qolish tarafdorlari bo'lib chiqishdi. Ular islom dinini ma'naviy yuksalishning muhim vositasi deb bildilar. Ammo, uning uchun dinning o'zini o'rta asrlar sxolastikasidan tozalash lozim deb hisoblashdi.

Jadidchilik harakati yuzaga kelayotgan paytda yozilgan M. Behbudiy va A. Fitratning "Islomning qisqacha tarixi" (bir xil nomdagi) asarlari jadidlarning dinga munosabati haqida yorqin tasavvur beradi.⁴ Ularda rivojlanish istiqbollari belgilash uchun atroflicha tahlili berilgan. Jadidlar uchun islomni yangilash fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini egallashda, ilk davrdagi musulmon dini aqidalari va zamonaviy sharoitlarni hisobga olish bilan chambarchas bog'liqlikda ko'rindi. Dastlab, yangi usuldagi ta'lim uchun kurashgan jadidlarda endi islomni isloh qilish mafkurasi ham rivojlanib bordi. Jadidchilik dunyoviy ta'limni faollashtirishga intilib, syni paytda yuzaga kelayotgan milliy burjuaziya manfaatlari, shakllanayotgan Tovar-bozor munosabatlari sharoitlarini o'zida aks ettirdi. Islomning ba'zi eskirgan aqidalarini inkor etishdi, fanlarning (matematika, grammatika, geografiya) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishdagi alohida ahamiyatini tan oldilar. Shu jihatdan qaraganda,

² A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. –B.9.

³ Toshqulov. D. Основные направления политико – правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX – первой четверти XX вв. Автореф. дис. докт. юрид. Наук – Ташкент, 1995.

⁴ Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., "Ma'naviyat", 1998 yil 288-bet

ayrim tadqiqotchilarning “Jadidchilikning pragmatik va mafkuraviy jihatlari uzluksiz birlik va o’zaro bog’liqlikda bo’ldi”⁵, degan fikrlariga to’liq qo’shilish mumkin.

M. Behbudiy o’zi nashr qilgan “Oyna” jurnalida shunday deb yozdi: “...Siz, muhtamlar, o’z bolalaringizni ular din va millatga xizmat qilishlari uchun zamonaviy bilimlarga o’qitmog’ingiz lozim, millat va dinga xizmat qilish esa, faqat bilimlar va pul orqali mumkin”⁶ deb yozgan edi. Jadidchilik harakatining tashkiliy jihatdan o’sib va mafkuraviy jihatdan shakllanishiga birinchi rus inqilobi o’z ta’sirini ko’rsatdi. Aynan mana shu yillarda (1905 – 1907-yillar) Turkistonda jadidchilik harakati tashkiliy va g’oyaviy jihatdan chiniqdi. Bu davrda turkistonlik jadidlar bilan Volgabo’yi, Qrim va Kavkaz jadidlari o’rtasida yaqin aloqalar o’rnatildi. 1905-yil Rossiya musulmonlar byurosining a’zosi Abdurashid Ibrohimov Toshkentga, 1908-yil Ismoil Gaspirali Turkistonga keldi. Ular Turkistondagi yangi usul maktablari, ularda dars berish qanday yo’lga qo’yilgani bilan tanishdi. Toshkent jadidlar sa’y-harakatlari bilan O’rta Osiyo mintaqasining ma’muriy va madaniy markazi sifatida islohochilar yig’iladigan joyga aylandi. Rossiyada bo’lgan inqilobiy faoliyat muvaffaqiyatlaridan ruhlangan jadidlar mafkurasi rivojlanib, o’zlarining liberal-islohotchilik faoliyatlarini kuchaytirdilar. Bu harakatga Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, ismoil Obidov, Ubaydulla Xo’jayev, Samarqandda Mahmudxo’ja Behbudiy, Akobir Shomansurzoda, S. Siddiqiy, Qo’qonda Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy va Po’lat Soliyevlar boshchilik qildilar va u barcha o’lka aholisi orasida keng yoyila boshladi.

Jadidlarning hurriyat mafkurasi nashriyot, xususan, matbuot faoliyatining keskin jonlanishiga katta turtki bo’ldi. Xususan, Turkistonda jadidlarning birinchi milliy gazetasi 1906-yil 27-iyunda “Taraqqiy” nomi bilan chiqdi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 25-iyun qarori bilan ushbu gazeta birinchi sonining chiqqan kuni “Matbuot kuni” sifatida keng nishonlanmoqda. “Taraqqiy” bilan bir qatorda Toshkentda turkistonlik jadidlarning 1906-yilda “Xurshid”, 1907 – 1908-yillarda “Shuhrat”, “Tujjor” gazetalarini paydo bo’ldi⁷. “Xurshid” va “Shuhrat” gazetalarini Turkistonda muturiyatchilik harakatining bo’lg’usi yo’lboshchilaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov, “Tujjor” gazetasi esa toshkentlik Saidkarimboy Saidazimboy o’g’li tomonidan nashr etildi. 1905-yilda Rossiya Konstitutsiyasi yumshatilgan senzura qabul qilganidan so’ng “Osiyo”, “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg’ona”, “Oyna”, “El bayrog’i”, “Turon” va boshqalar paydo bo’ldi. Ularning ko’pchiligi qisqa muddat chiqqan bo’lsa-da, muhtoriyatchilar g’oyalarini tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Yana shunday faoliyatlardan biri

⁵ A’zamxo’jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000. –B.13.

⁶ Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.

⁷ Qosimov B. "Milliy uyg’onish", T., "Sharq", 2004 yil, 53-bet..

maktablarni tashkil etish bo'ldi. 1910-yilga kelib o'lkaning turli joylarida 50 ga yaqin shunday maktablar tashkil etildi. Toshkent va Qo'qon jadid maktablarining yirik markazi bo'lib qoldi⁸. 1917-fevral inqilobi boshlariga kelib chor hukumati tomonidan Turkistonda 4 mingdan ortiq bola o'qiydigan 100ga yaqin yangi usuldagi maktablar ro'yhatdan o'tkazilgan. Jadidlar bu yangi usul maktablarida o'qitish uchun o'zlari darsliklar tuzib, chop ettirdilar. Munavvarqorining "Adibi avval", Rustambek Yusupovning "Ta'limi avval", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" darsliklari shular jumlasidandir. Maktablar, o'quv dasturlari, ulardagi sharoitlar mukammal bo'lmagani bilan, lekin jadidlarning tanlagan yo'li, mafkurasi omma tomonidan qo'llab quvvatlandi. O'zbek nashriyotlari va milliy teatrining paydo bo'lishi esa, ma'rifatparvarlik, hurriyat, milliy uyg'nish g'oyalarini tarqatishning samarali vositasiga aylandi. Noshirlar shoir va yozuvchilarning asarlarini ommaga yetkazdilar, ayniqsa Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Bedil, So'fi Olloyor kabi mutafakkirlarning diniy va falsafiy asarlari nashr etilishi jadidchlik tafakkuriga yangi turtki berdi.

1905 – 1907-yillarda taraqqiyparvarlarni birlashtiruvchi muayyan dastur yo'q edi, ularning siyosiy qiyofasi hali shakllanmagan edi. "Yosh sartlar" partiyasi hali paydo bo'lmagan, shakllanmagan bo'lsa-da, ayni paytda "bu yo'nalishda "ish" olib borilmoqda" edi⁹.

Jadidlar metropoliyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatdilar, Rossiyadagi siyosiy partiyalar faoliyatlarini o'rgandilar. Jadidlar dastlab keskin chora-tadbirlar ko'rishga chaqirmadilar, chunki ularning fikricha bu hol og'ir ahvolga olib kelishi mumkin edi. Shunday qilib, turkistonliklar muhitida 1905-yil inqilobi ommaviy-siyosiy faoliyat uchun dastlabki umidlarni uyg'otdi. Biroq "Stolipin reaksiyasi"ning shafqatsizligi bularni yo'qqa chiqardi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "Xurshid" gazetasi 1906-yil 11-oktabrdagi sonida e'lon qilingan maqolasining boshida barcha musulmonlar bir siyosiy partiyaga birlashishi zarurligini ta'kidlaydi. U Rossiyadagi monarxistlar partiyasiga qarshi bo'lgan, chunki monarxistlar partiyasi bo'lmaganda edi xalq podshoga bevosita murojaat qilish imkoniga ega bo'lardi. U sotsialist partiyalar dasturlari yaroqsizligini aytib o'tadi. Jadidlar gazetalari va jurnallarida siyosiy yo'nalishdagi maqolalarida hukmron sinflar imtiyozlarini tugatish, millatlar tengligi, sakkiz soatlik ish kuni, namoyish qilish huquqiga oid chaqiriqlar ko'p uchraydi. "Taraqqiy" gazetasi chor tuzumini "siyosiy o'zboshimchalik, mushtumzo'rlik zulmi va xalq nodonligining zulmatdagi podsholigidir" deya tavsiflaydi. U 1906-yil 19-avgustdagi sonida "Musulmonlar ruslar, polyaklar, yahudiylar kabio'z haq-huquq va erkinliklarini talab qilishlari... boshqa millaatlar bilan birlashib, hukumatga qarshi birgalikda harakat etishlari lozim" degan

⁸ Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.

⁹ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2000. –B.16.

taklifni e'lon qilganidan so'ng gazeta yopib qo'yildi va Ismoil Obidov esa qamoqqa olindi. 1906-yil 26-oktabrdagi sonida esa "Hukumat xalq qonini zulukdak so'rmoqda azoblamoqda, 1906-yil 17-oktabrdagi chor manifesti esa xalqni tinchlantiruvchi ayyorlikdir."¹⁰ Yaqinda bunday "ozodlik"lardan asar ham qolmaydi, shu bois ham xalq chorizm binosi ag'darilishi uchun o'zi harakat qiladi" degan qarashlar, chaqiriqlar bildirildi.

Umuman, 1905 – 1907- yillar davrida jadidchilik ilg'or siyosiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Inqiloblar oralig'idagi davrda (1908-1916)jadidlar miqdor va tashkiliy jihatdan o'sdi, mustahkamlandi. Yashirin jadidlar guruhleri ham bo'lgan. Hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, guruhlar o'zaro aloqada bo'lganlar. Shuningdek, XX asr 10-yillarida "gap" deb ataladigan kechalar o'lkaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan. "Gapga millatiga, yoshiga, mavqeiga va ba'zan kasb-hunariga qarab yig'ilishgan... Ularning miqdori 15 dan 30 kishigacha boradi"¹¹. Bunday gaplarda jadidlar ham faol ishtirok etishgan.

Inqiloblar oralig'idagi davrda jadidlar orasida siyosiy ajralish ro'y berdi. Ayni paytda jadidchilik harakati madaniy xususiyatlardan ko'ra ko'proq siyosiy belgilarga ega bo'lgan harakat tusini oldi. Jadidlar mafkuraviy qarashlarining bundan keying tadrijiy rivojlanishi 1-jahon urushi yillariga to'g'ri keldi. 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi Turkiston musulmon aholisining siyosiy uyg'onishida, yangi kuchlarning siyosiy maydonga chiqishida burilish bosqichi bo'ldi. 1917-yil boshlarida Nikolay II ag'darilib, hokimiyat muvaqqat hukumat ixtiyoriga o'tganidan so'ng, Petrogradta bo'lib o'tgan voqealar ta'sirida Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi va turli siyosiy tuzilma va harakatlar faollashdi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida, hatto oddiy odamlar o'rtasida ham ommalashgan edi. 1917-yil mart-aprel oylarida o'lkaning siyosiy uyg'onishida tub burilish davri bo'ldi. Turkiston jadidlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov Ubaydulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, Usmon xo'ja, Mustaf o Cho'qay, Muhammadjon Tanishboyev, Sherali Lapin, Ahmad Zaki Validiy, To'gon Obidjon Mahmudov o'lkada yangi tashkil etilgan "Sho'royi Islomiya" (1917-yil mart), "Sho'roi Ulamo" (1917-yil iyun), Turon jamiyatlari va Turk odami markaziyat (Fediralistlar) firqasining (1917-yil iyul), "Ittifoqi mustiymin (1917-yil sentabr) siyosiy partiyalarini tuzilishida yetakchi rol o'ynaydilar¹².

1917-yil 20-23 mayda Toshkentda musulmon o'qituvchilarning Birinchi o'lka qurultoyi chaqirildi. M. Abdurashidxonov qurultoy raisi etib saylandi. Unda

¹⁰ Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyozuz. Com.

¹¹ A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. –B.20.

¹² Alimova D, Karimov H. "O'zbekiston tarixi" -Toshkent:"Sharq", 2006. -B.48.

“ruhoniylar, eski usuldagi maktablar shariatga muvofiq asta-sekin isloh qilinadi” degan bir bitimga kelishildi.

Shu kabi siyosiy yutuqlardan so'ng jadidlar Turkistonga Rossiya demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muhtoriyat berilishi tarafdori bo'lib chiqdilar. Ko'plab gazetalar “Yashasun qo'shma xalq jumhuriyati” shiori ostida chiqq boshladilar. Bu shior “Turk eli” gazetasining ta'rificha “Turkistonning unga xayrixoh millatlar bilan milliy-madaniy va hududiy muhtoriyat huquqlari asosida birlashishi”ni anglatgan (“Turk eli”, 1917, 4 oktabr).

Boshqaruvning asos shakli sifatida respublikachilik tanlandi. Demokratik jamiyatni shakllantirish ustuvor maqsad qilib qo'yildi.

Shunday qilib, demokrat jadidlarning 1917-yildagi asosiy vazifasi Turkistonni ma'rifatli, savodxon mamlakatga aylantirishga intilishda ko'rindi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati;

1. A'zamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyati. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2000
2. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil
3. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyoz. Com.
4. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004 yil.
5. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.
6. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998 yil